

ABDULLA AVLONIY SHE'RLARIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASI

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN THE POEMS OF ABDULLA AVLANI

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek language and
literature department 3rd grade student

Annotatsiya:

Ushbu maqolada milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili, o'zbek pedagogikasining otasi Abdulla Avloniyning "Maktabga targ'ib" nomli lirik turiga mansub she'ri tahlilga tortilgan.

Abstract:

In this article, the great representative of national Uzbek renaissance literature the founder of Uzbek pedagogy, Abdulla Avlani "Promoting to the school" the poem of the lyric type called.

Kalit so'zlar: prezident, maktab, adabiyot, she'rlar, odob, bilim, ma'rifat, g'oya.

Keywords: President, school, literature, poems, manners, knowledge, enlightenment, idea.

Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon: "Adabiyot yashasa millat yashar!"- degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi.

Hayot va tarix sinovlardan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi [3].

She'r shunchaki yozilmaydi, she'riyat ko'ngil mahsulidir, ko'ngil hosilidir. Har kim she'r yozolmas, har kim ko'ngil dardini satrga tushirmoqqa ojiz. She'r yozmoq uchun dard bilan tug'ilmoq darkor.

O'zbek milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Avloniy o'z davrining xalq dardini o'z dardi deb bilgan otashin shoirlaridan biri edi.

Shoir 16 yoshidan boshlab she'rlar qoralay boshlasada, uning dastlabki she'rlari bizgacha yetib kelmaganligi achinarlidir. Avloniy ilk she'rlarini "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'plamiga jamlagan. Ushbu to'plam 4 qismdan iborat bo'lib, 1909-1917-yillar yillar oralig'ida

ko'p marotaba nashr etilganligi manbalarda qayd etiladi. Bu she'rlarning hammasi avtobiografik xarakterga ega bo'lib, o'sha davrning milliy-ijtimoiy xarakterini o'zida mujassamlashtiradi.

She'rlarining barchasida xalqni ilm-marifatga ma'naviyatga chorlash, ularni birdamlikka chaqirish, maktab ochish kabi vazifalar ustuvor hisoblangan. Xususan, "Maktabga targ'ib" she'rida ham mana shunday g'oyalarni ko'rishimiz mumkin:

Qil qoshida, millat boshida
Nurlar sochub, yashnab turg'on maktab emasmi?
O'qusun yoshlarimiz, bid'atni tashlarmiz,
Ketsun g'aflat! Kelsun himmat! Yashasun millat!
Ilm-u hunarlar, gullar chamanlar,
Yoshlar uchun ochib turgon maktab emasmi?
Bobi adabdan, ilm-u funundan,
Ta'lim berib, so'ylab turgon maktab emasmi?
Ahli vatanga, sarv-u chamanga,
Bulbul kabi sayrab turgon maktab emasmi?
Bog'i jinondan, ham bo'stondan,
Milliy gullar terub turgon maktab emasmi?
Zulm-u jahtga, nodon, baxilga,
Ko'kragini kerub turgon maktab emasmi?
Illatga luqmon, zahmatga hoziq,
Hikmat darsi berub turgon maktab emasmi? [1]

Darhaqiqat, oqil shu darajaga yetkunga qadar bo'lgan zahmat maktab gardanidadir.

Qachonki, millatda maktab bo'lsa va millat bolalari maktabda ta'lim olsa, ma'rifat, ilm o'rgansa, o'sha millat oqildir (oqil birikmasi bu yerda aqlli ma'nosida kelgan – O.J).

Yoshlarning o'qishi, bilim olishi, Vatan uchun kerakli inson bo'lib voyaga yetishi har bir millat uchun suv bilan havodek zarurdir. Bid'at va g'aflat kabi illatlar insonda bo'lmasligi lozim. Negaki, g'aflat odamni insoniylikdan, bid'at esa iymondan chiqaruvchidir.

Maktab adabdan (adab arab tilida odob so'zining ko'plik shakli – O.J), ilm-ma'rifatdan xabar beruvchi, insonga hunar o'rgatuvchi bir maskandir. Zulmga, jaholatga, nodonga, baxilga qarshi turuvchi, zulmga yaxshilik bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan, nodonga aql bilan, baxilga saxiylik bilan qarshi turuvchidir maktab.

Maktab bolaga to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi, dono qilib tarbiyalaguvchi, yaxshini yomondan, ya'ni oqni qoradan farqlashni o'rgatuvchi bir dargohdir.

Bilganga darmon, bilmasga armon,
Johillami turtub turgon maktab emasmi?

Maktabda odob, maktabda axloq,
Xat-u savod chiqarub turgon maktab emasmi?
Dorul uluma, dorulfununa
Avlodini yuborib turgon maktab emasmi?
G'aflat jafosin, jahling yaqosin
Qo'lini cho'zub ushlab turgon maktab emasmi?
Har bir kishiga, savdo ishiga
Yo'l ko'rsatub, boshlab turgon maktab emasmi?
Dunyoda san'at, bizlarda bid'at
Tashlang, debon yalinub turgon maktab emasmi?
Ko'ngulda armon, yuz dog'i Hijron,
Millat ruhini ko'tarub turgon maktab emasmi?

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganidek: "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda" [2].

Maktab jaholatga qarshi ma'rifat bilan o't ochuvchi katta kuchdir. Ta'limdan hech qachon tarbiyani ajratib bo'lmaydi, chunki bu ikkalasi tirnoq bilan et kabidir. Ta'lim bilan birgalikda odob-axloq, ya'ni insoniylikka chaqiruvchi bilim yurtidir maktab. Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, kasblar ichida eng sharaflisi o'qituvchilik bo'lsa, imoratlar ichida eng ulug'i maktabdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
- 2.Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
- 3.Reichl, Karl. *Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure*. Routledge, 2018.
- 4.Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." *Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабур и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г..* Litres, 2022.
- 5.Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." *International Journal on Integrated Education* 5.10 (2022): 149-151.

6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 268-273.

7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).

8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.5 (2022): 105-110.

9. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 486-490.

10. Алимova, Зулфия Каримовна, and Дилафруз Абдужамилевна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ*. 2020.

11. Алимova, З. К., and И. М. Расулова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." *Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г..* Litres, 2022.